



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Isakova Nozina Sherdorovna<sup>1</sup>

<sup>1</sup> TVCHDPI magistranti e-mail: nozinasherdorovna@gmail.com

## TA'LIM MUASSASALARIDA RAHBARLARNING BOSHQARUV FUNKSIYALARI MAZMUNI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida rahbarlarning boshqaruv funksiyalari mazmuni yoritilgan. Shuningdek, boshqaruv tushunchasi, uning mohiyati va rahbarlarda boshqaruvchanlik qobiliyatlarining shakllanish jarayonlari tahlil qilingan

**Kalit so'zlar:** boshqaruv, ta'lim, funktsiya, tizim, psixologik, pedagogik, nazorat, rivojlanish.

**Аннотация:** В статье описаны управленческие функции руководителей в образовательных учреждениях. Также анализируется понятие менеджмента, его сущность и процессы формирования управленческих навыков у менеджеров.

**Ключевые слова:** управление, образование, функция, система, психологический, педагогический, контроль, развитие.

**Annotation:** This article describes the management functions of leaders in educational institutions. It also analyzes the concept of management, its essence and the processes of formation of managerial skills in managers

**Keywords:** management, education, function, system, psychological, pedagogical, control, development.

## KIRISH

Ta'limda mavjud barcha jarayonlarni tartibga solib turish uchun boshqaruv funksiyalarining mazmun va mohiyatini bilish zarur. "Funksiya" – so'zi lotincha bo'lib, bajarish, vazifa, faoliyat, majburiyat ma'nosini bildiradi. Boshqaruv vazifalari – biror ob'ektga rahbarlik qilish uchun zarur bo'lgan faoliyat turi hisoblanadi. Boshqaruv vazifalari o'zining tarkibi bilan boshqaruv texnologiyasini bunyod etadi. Boshqaruv vazifasining ma'nosida ikkita narsa aks etadi:

- u avval tizimda nima qilinayotganini belgilasa;
- so'ngra "qanday qilib?" savoliga javob beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Boshqaruv – bu sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, ya'ni to'g'ri va teskari ta'sirlarning uzluksizligi, bir-biriga ta'sir etuvchi sub'ektlar o'zgarishining organik bog'liqligi degan qarashlar mavjud. S.N.Tidor boshqaruv ma'nosini quyidagicha ta'riflaydi:

- maqsad yo'nalishida ob'ektni muvofiqlashtirish;
- maqsadga erishish uchun ob'ektga ta'sir etish;
- tizimni tashkil etuvchilarga ta'sir etishni vertikal muvofiqlashtirish.

"Boshqarish – bu insonlarni boshqarish, ular bilan ishlash" deb ta'riflaydi A.I.Kitov. "Boshqaruv – bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir" deb baho berishgan o'zbek olimlari M.Sharifxo'jaev va Yo.Abdullaevlar. Menejment so'zi boshqaruv ma'nosini anglatmaydi uni farqi menejment – bu boshqaruv faoliyatini tashkil etish ma'nosini bildirib, u fan sifatida boshqarishning sir-asrorlarini o'rganadi va tahlil qiladi. Boshqarish nazariyasining asoschilaridan Anri Fayol XX asr boshlarida boshqaruvning 5 ta funksiyasini ko'rsatgan:

1. Rejalashtirish.
2. Tashkil etish.
3. Farmoyish berish.

4. Muvofiqlashtirish.

5. Nazorat qilish.

A.T.To‘xtaboev funksiyalarni faqat ma‘muriy ekanligini takidlab, ma‘muriy boshqaruv funksiyalarining 3 ta guruhini ko‘rsatib bergan:

1. Umumiy funksiyalar.

2. Ijtimoiy – psixologik funksiyalar.

3. Texnologik funksiyalar.

Ye.S.Bereznyak esa, 3 ta – rejalashtirish, rahbarlik va nazorat funksiyalarini takidlaydi. Ta‘lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv funksiyalarini shartli ravishda 2 ta turga bo‘lish mumkin: professional va ijtimoiy – psixologik funksiyalar.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar tahlili asosida boshqaruv funksiyalarini quyidagi izohlar orqali tushintirish mumkin. Umumiy funksiyalar – boshqaruv jarayonining asosiy bosqichlari mazmunini anglatadi. Barcha tashkilotlarda muvaffaqiyatli boshqarish quyidagi umumiy funksiyalarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi:

- maqsadlarni shakllantirish;

- strategik rejalashtirish;

- tashkil qilish;

- tartibga solish, yoki muvofiqlashtirish;

- rag‘batlantirish;

- nazorat qilish (hisob – kitob yuritish va tahlil qilish).

1. Boshqarishning ijtimoiy – psixologik funksiyalari – jamoadagi ijtimoiy – iqtisodiy munomabatlar harakteri bilan bog‘langan.

2. Ma‘muriy boshqaruvning texnologik funksiyalari – har qanday darajadagi rahbarlar mehnat texnologiyasi mazmunini anglatadi.

Bu funksiyalar o‘zaro bir – birini to‘ldirib, ma’muriy boshqaruvning yagona tizimini tashkil qiladi. Mamlakatimiz olimlari boshqarish faoliyatining turlariga qarab quyidagi funksiyalarni ko‘rsatishmoqda:

- boshqarishning iqsodiy funksiyalari, ya’ni: mablag‘larning doiraviy aylanishni amalga oshirish, mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, marketing xizmati va foyda olishini ta’minlash.

- boshqarishning sotsial funksiyalari, ya’ni: mehnat sharoitini yaxshilash, xodimlarni ma’naviy – madaniy extiyojlarini qondirish, rag‘batlantirish va ijtimoiy ximoyani ta’minlash.

- boshqarishning ma’naviy – marifiy funksiyalari, ya’ni: xodimlarni insoniylik, yaxshilik, mehr – shavqatli, sabr – toqatli bo‘lishi ruhida tarbiyalash. Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash.

- boshqarishning tashkiliy funksiyalari, ya’ni: ishlab – chiqarishni tashkil qilish, aloqalar o‘rnatish, muvofiqlashtirish, barcha bo‘limlar o‘rtasida vazifalar taqsimoti, boshqarishning aniq usullarini tanlash, qarorlar qabul qilishda ish tartibi izchilligi va axborotlar oqimini tashkil qilish.

Bu funksiyalar bir – biri bilan bog‘liq tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, yaxshilikka ega. Shuning uchun xam e’tibordan chetda qolmasligi kerak.

Menejment nazariyasida asosan 4 ta funksiya:


- rejalashtirish;
- tashkil qilish;
- motivlashtirish;
- nazorat qilish.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Axborotlar bilan ishlash turli ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va uzatishdan iborat bo‘lib, guruhlar faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonida qo‘llaniladi. Bu jarayonda rahbar muassasaga kelayotgan asosiy ma’lumotlarning generatori sifatida faoliyat ko‘rsatadi va uning uchun mehnat predmeti axborotlar bo‘lib, ular asosida qarorlar – boshqaruv jarayonining mahsulotlari ishlab

chiqariladi. Bu hususiyat rahbarning boshqa funksiyalari va axborotlar bilan ishlash funksiyalarining qolgan ko'rsatkichlari bilan bog'liq bo'ladi.


### 1-rasm



Ta'lim muassasalarini boshqarishning o'ziga xosligi quyidagi funksiyalarda aniqroq ifodalanadi:

- axborot tahlil;
- maqsadli – motivlashtirish;
- oldindan ko'rish – rejalashtirish;
- tashkiliy – ijrochilik;
- nazorat – tashxiz;
- tartibga solish – muvofiqlashtirish.

2-rasm



1. Axborot – tahlil funksiyasi. Uning asosiy vazifasi pedagogik tizimlar (pedagogik jarayon) to‘g‘risida uzluksiz ravishda axborotlar to‘plash va ularni chuqur o‘rganish xamda ob‘ektiv baxolashdan iborat.

2. Maqsadli – motivlashtirish funksiyasi. Motivlashtirish olg‘a surilayotgan maqsadga erishish bo‘yicha barcha boshqaruv sub‘ektlarida qiziqishlar uyg‘otish tadbirlarni tashkil etishni nazirda tutadi. Motivlashtirish harakatlar va tadbirlarni yetarli darajada tashkil etish uchun zarur.

3. Oldindan ko‘rish – rejalashtirish funksiyasi. Boshqaruvda bu funksiya uchun maqsadli motivlashtirish boshlang‘ich asos bo‘lib, xizmat qiladi. Oldindan ko‘rish – rejalashtirish funksiyasi tashkiliy shakllar, usullar, ta’sir etuvchi vositalarni aniqlaydi. Nazoratning meyyori va natijalarini baxolashga xizmat qiladi, shuningdek pedagogik tizimni va uni ishtirokchilarining harakati va faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solishga imkoniyat yaratadi.

4. Tashkiliy – ijrochilik funksiyasi. Bu funksiya boshqaruv faoliyatining barcha yo‘nalishlarida o‘z aksini topadi. Ya’ni, u kadrlar tanlash va joy – joyiga qo‘yish, ijrochilarning o‘zaro ta’sir etish tizimini shakllantirish, axborotlar to‘plash va ularga ishlov berish faoliyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Buning natijasida u yoki bu pedagogik tizimga xos tarkibiy tuzulish vujudga keladi.

5. **Nazorat – tashxis funksiyasi.** Nazorat – bu boshqaruv jarayonining faol bosqichlaridan biri bo‘lib, u boshqaruvning barcha funksiyalari bilan bog‘liq bo‘ladi. Umumiy xolda nazorat rejalashtirilgan natija bilan xaqiqiy erishilgan natijalarni o‘zaro solishtirish jarayoni bo‘lib, u faoliyatning muvaffaqiyatini aniqlashga imkoniyat yaratadi. Nazorat yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlash va ularni tuzatish usullarini belgilash imkonini beradi.

6. **Tartibga solish – muvofiqlashtirish funksiyasi.** Bu funksiya pedagogik tizimning xolatini zaruriy, belgilangan darajada ushlab turish, uni yangi sifat darajasiga ko‘tarish va pedagogik jarayonda yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni tuzatish xamda pedagogik jarayoni ishtirokchilarining xatti – harakatlarini tartibga solish uchun xizmat qiladi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, boshqaruv uslublarini to‘g‘ri tanlash va qo‘llay olish – muassasa oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishda xodimlarni boshqarish hamda boshqaruv jarayonida vujudga keladigan muammolarni xal qilishda muhim ahamiyatga ega. Bilim darajasi – rahbarning boshqaruv jarayonida eng zarur bo‘lgan asosiy shartlaridan biri bo‘lib, boshqarish, nazorat qilish, qarorlar qabul qilish, buyruq va ko‘rsatmalar, nasixat hamda maslaxatlar berishda ilmiy asoslangan ma’lumotlarga tayanishi zarur hisoblanadi. Boshqaruv funksiyalarini to‘g‘ri qabul qilish va amalda qo‘llash orqali muassasada faoliyat yuritayotgan raxbar va xodimlarning shaxslararo munosabatlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ummatqulov T.M. Ta’lim tizimini boshqarish. Farg‘ona: 2015. 135b.
2. Введенский В.Н. Моделирование профессиональной компетентности педагога // Педагогика. 2003. №10. – С. 51-55.



3. Владимиренко В.И. Профессионализм руководящих управленческих кадров производственно-хозяйственной сферы и его формирование. Ярославль педагога // Педагогика. 2004. №3. – С. 64-69

4. Шоисаева Г. (Н.Турдиев тахрири остида). (2014). Хусусий ва умумпредмет компетенциялари. “Умумтаълим фанлари методикаси”. №5-сон. 2-4 б.

5. Мясников, В. Компетенции и педагогические умения / В. Мясников, Н. Найденова // Народное образование. - № 9. – 2006. С. 147 - 153. М.

6. Осмоловская И. Ключевые компетенции в образовании: их смысл, значение и способы формирования / И. Осмоловская // Директор школы. - № 8. 2006. С. 64 - 69. 19.

7. Maratov Temur Gayrat ugli (2019) Scientific theoretical problems of perfect human category in the psychology. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 7(8). 16-22.

8. Nortoji Jumaevich Eshnaev. (2021). Ma’naviy-axloqiy muammolarni ilmiy tadqiq etishning o‘ziga xos jihatlari. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. Vol.2, no. 2. p. 364-369.

9. Usarov Jabbor Eshbekovich, Eshnaev Nortoji Jumaevich, and Haydarova Surayyo Abdusalomovna. (2020) “Defects in scientific research of the problems of spiritual and moral crisis and its solution”, IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 5, no. 8, p. 6.